

Eldor Aripov JIDUda Markaziy Osiyo mintaqasidagi transchegaraviy tahdidlarga bag'ishlangan ma'ruza o'tkazdi



2025-yil 26-noyabr kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik va mintaqalararo tadqiqotlar instituti (SMTI) direktori Eldor Aripov Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetida (JIDU) "Markaziy Osiyoda transchegaraviy tahdidlar" mavzusida ma'ruza qildi.



Ma'ruza davomida talabalarga Markaziy Osiyo taraqqiyotining asosiy tendensiyalari, o'zgaruvchan geosiyosiy tartib sharoitida mintaqamamlakatlari duch kelayotgan yangi muammolar va imkoniyatlar, shuningdek, mintaqadagi davlatlararo hamkorlikning ustuvor yo'nalishlari haqida ma'lumot berildi.

Transmilliy tahdidlar, jumladan, iqlim o'zgarishi oqibatlarini, suv resurslarining tobora taqchil bo'lib borayotgani, terrorizm va ekstremizmning kuchayishi, narkotik moddalar noqonuniy aylanishining tarqalishi kabi xavf-xatarlarni kompleks tahlil qilishga alohida e'tibor qaratildi.

Yaqinda Toshkent shahrida bo'lib o'tgan Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining yettinchi Maslahat uchrashuvi yakunlari alohida ko'rib chiqildi. Unda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan tashabbuslar atroflicha tahlil qilindi.

Ma'ruza mavzusi talabalarda katta qiziqish uyg'otdi. Ular muhokamada faol ishtirok etib, savollar berishdi va o'z qarashlarini o'rtoqlashishdi, bu esa ma'ruzaga interaktiv va ochiq tus berdi.

Umuman olganda, ma'ruza talabalarga Markaziy Osiyo oldida turgan dolzarb muammolar va mintaqadavlatlari o'rtasidagi hamkorlik dinamikasini chuqurroq tushunish imkonini berdi. Faol muhokamalar tanqidiy fikrlashni shakllantirishga va mintaqaviy muammolarni hal qilishda kompleks yondashuv zarurligini anglashga yordam berdi.



